

ATMU Pedagogika kafedra dotsenti: *M.A.Sattorova*
ATMU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi: *Sh.A.Ilmomova*

MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARNING O'QISHGA BO'LGAN QIZIQISHINI ORTTIRISH TENDENSIYASI

Annotatsiya:Maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini orttitish masalasi yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: kichik, maktab yoshi, qiziqish, pedagog, boshlang'ich, ta'lim, tarbiya, o'zlashtirish, o'quv, faoliyat, yo'nalish, intilish.

Tendensiya so'zi lotincha "ten-dere" – yo'nalmoq, intilmoq ya'ni taraqqiyot yo'nalishi biror narsaga qiziqish, moyillik, intilish ma'nosini anglatadi. Kichik maktabgacha yoshidagi bolalarni qiziqishini oshirish uchun avvalo ularning nimaga yoki qaysi fanga qiziqishini aniqlashimiz kerak bo'ladi. Uning uchun pedagog har bir darsda e'tiborli bo'lishi va dars mobaynida o'quvchilarning qaysi biri aktiv qatnashayotganiga e'tibor bilan qarab borishi zarur. Shu jarayon orqali har bir o'quvchi qaysi fanda aktivligini bilib qiziqishini aniqlab olishi mumkin.

O'quvchilarni yo'naltirishda ularga albatta birinchi o'rinda erkinlik va sharoit yaratib berish zarur. Bola qanchalik erkin fikrlay olsa shunchalik yaxshi natijalarga erisha oladi. Bolaning ilm-fan bo'yicha intilganda uni har doim qo'llab- quvvatlash kerak. Pedagog ota-onalarga nisbatan kichik maktab yoshidagi bola shaxsiyatini rivojlantirishga juda katta ta'sir kuchiga ega. Jumladan, uning dunyo qarashi, hayotiy pozitsiyasi va bolalarga bo'lgan munosabati o'quvchi shaxsiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chunki boshlang'ich talimda ta'lim va tarbiya ayniqsa bir-biri bilan chambarchas bog'liq jarayondir.

Boshlang'ich ta'limda deyarli barcha fanlarni bitta pedagog olib borganligi sababli ularning shaxsiy xususiyatlari - axloqi, madaniyati, pedagogik qobiliyati, bolalarga bo'lgan munosabati va hatto xarakter xususiyatlari ham kichik maktab yoshidagi bolalarning shaxsiy xulqiy sifatlariga singib ketish holatlari kuzatiladi. Ayniqsa bu parallel sinflarga nisbatan yaqqol olib qaralganda sezilarli darajada aks etadi. Bu holat kichik maktab yoshidagi bolalarda yuqori sinflarga o'tgunlariga qadar davom etishi mumkin.

Kichik maktabgacha yoshidagi bolalarni maktabga tayyorligining xarakterli xususiyatlaridan biri – darhol javib berishga moyilligida namoyon bo'ladi. Bu holat uning impulsiv, beixtiyor harakatchanligini oshirish bilan birga o'quv jarayoniga tez va keskinlikda kirishishini hamda so'z boyligini oshishini taminlaydi.

Adabiy ta'limning boshlang'ich bosqichida o'quvchiga qo'yiladigan talablar, asosan, o'quvchining individual rivojlanishiga emas, balki uning bilim, ko'nikma va qobiliyatlariga qaratilgan. Shu sababli, o'qish jarayoniga qiziqishni shakllantirish va boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilarning xususiyatlarini ta'lim faoliyatida hisobga olish kerak.

Birinchidan, kichik o'quvchi matnga birinchi navbatda hissiy munosabatda bo'ladi. O'quvchilarning matn bilan bog'liq tajribalari boshlang'ich maktab uchun katta ahamiyatga ega. Va hozirgi maktab o'quvchilarning hissiy rivojlanishi vazifasini qo'ygan bo'lsa-da, uni hal qilish oson emas. Axir, buning uchun siz ma'lum bir metodologiyaga ega bo'lishingiz, darsning o'ziga xos metodologiyasini, o'qish davrida o'quvchining o'qish rivojlanishini baholash mezonlarini bilishingiz kerak.

Boshlang'ich maktabgacha yoshidagi kitobxonlarning yana bir xususiyati -badiiy dunyo va real dunyoni aniqlashdir. Kitobxon taraqqiyotidagi bu davrni "sodda realizm" davri deb atalishi bejiz emas. Bu jonli, realga nisbatan xarakterga nisbatan ifodalanadi; uning tasviriga ishonch ko'rsatishda.

Uchinchidan, shuni ta'kidlash kerakki, kichik yoshdagi o'quvchilarda so'z va badiiy detallarga nisbatan sezgirlik mavjud. O'quvchi ba'zan bunday psixologik nozikliklarga munosabat bildiradi, hatto kattalar ham sezmasligi mumkin.

To'rtinchidan, mavjudlik effekti deb ataladigan narsa yosh o'quvchilarga xosdir, bu o'quvchining tasvirda yashash qobiliyatini anglatadi.

Beshinchidan, yosh o'quvchining oxirgi xususiyati - badiiy shaklga munosabatning yetishmasligi.

O'qish jarayonida o'quvchilar birinchi navbatda qahramonlarni, syujetni, individual voqealarni ko'radilar, lekin baytlar, epitetlar, tinish belgilari, paragraflarga bo'linish emas. O'quvchining o'zi ularni sezmaydi, ya'ni u ularni tushunmasdan o'tib ketadi, u ularning nima ekanligini tushunolmaydi.

Shunday qilib, kichik yoshdagi o'quvchilarni idrok etishning o'ziga xos xususiyatlari o'qituvchining o'qish jarayoniga qiziqishini rivojlantirish jarayonida qo'llab-quvvatlashdir. Darsda o'qituvchi o'quvchilarga o'qish bu muloqot, o'quvchi va muallif o'rtasidagi dialog ekanligini ko'rsatishi kerak. Lekin bu muloqot bevosita emas, balki muallif tomonidan yaratilgan matn orqali muloqotdir.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar javob berishda bevosita tassurotlarga boy va faoldir. Dars jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar ularda hamisha zo'r ishtiyoq bilan o'quv materialni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining o'qish darslarida ijodiy va hissiy lahzalarga alohida sezgizligi doimiy ravishda namoyon bo'ladi.

Yuqoridan kelib chiqib, har bir aytilgan metodlar, usullar, qoidalarni hisobga olinsa albatda o'quvchining qiziqishini oshirsa bo'ladi degan fikrdaman. Boshlang'ich ta'limda qiziqishni orttirish tarzi o'qituvchining o'qish uslubini takrorlash bilan ham amalga oshirishi mumkin. Albatta o'quvchiga vzifa beriladi va shu vazifalar ortiqcha yuklanishi aksariyat hollarda o'quvchilarni ruhiya tushkunlikka solishi va ularning shahsiyatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu sababdan pedagoglar o'quv materiyallarini mazmunini shakllantirishda bu holatlarni albatta hisobga olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Bola va Zamon" 4/2021
2. A.Xoliqov "Pedagogik mahorat" – T: Iqtisod Moliya 2021
3. Xarlamov I.F. Maktab o'quvchilarini o'qitishni qanday rivojlantirish kerak. – Minsk; Narr. Asveta1945. – 144c.
4. Viyunova N.I, Gaydar K.M, Temnova L.V. Bolaning maktabga psixologik tayyorgarligi. – M. Akadimik loyiha, 2003. – C. 125